

TUBAN O'SIMLIKLAR VA ULARNING KLASSIFIKATSIYA

Abduhalilova Madinabonu

Andijon davlat pedagogika instituti

Tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo'nalishi 201-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14177494>

Annotatsiya: ushbu tezisda, tuban o'simliklarning sistematikasi, turlarning morfologik tuzilishi, ba'zi vakillarining hayot siklida sporalar orqali qanday ko'payishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tuban, yuksak, zamburug', tallom, prokariot, eukariot, virus, bakteriya, laminariya, ulva, lishaynik, euglena, pirrofit, diatom, shilimshiq.

O'simliklar dunyosi tuban (150 000) va yuksak (300-350 ming) o'simliklarga ega. Tuban o'simliklar tanasida vegetativ organlar bo'lmaydi va ularni qattana (tallom) deyiladi. Qattanada o'tkazuvchi naylar ham bo'lmaydi. Jinsiy organlari tuban o'simliklarniki bir hujayrali bo'ladi. XX asrning o'rtalari kelib, turli organizmlarning hujayralari chuqur o'rganiladigan bo'lgandan keyin hamma tirik organizmlar prokariot va eukariotlar guruhiga bo'lib o'rganilmoqda. Tuban o'simliklar quyidagi kategoriyalarga bo'linadi: tur, turkum, oila, sinf va bo'lim. Sistematikada eng kichik taksonomik kategoriya tur hisoblanadi. Tuban o'simlik turlari tabiatda o'zgaruvchan har xil mahalliy populyatsiyadan iborat. Masalan; zamburug'larning ko'pchilik turlari fiziologik va virulentlik xususiyatlari bilan bir-biridan faqr qiladi.

Tuban o'simliklar (**Thallophyta**) 4 ga bo'linadi.

- Hujayrasiz tuzilish – **Protocybionta**
- Shakllangan yadroga ega bo'lmagan – **Thallobionta**
- Yadroga ega tallomli (tallofit) – **Thaleucaryota**
- Plastidasiz tallomli (tallofit) – **Thaloplastidal**

Hujayrasiz tuzilishga – Viruslar (**Virophyta**) kiradi. Viruslar (lotin. Virus- zahar) yuqimli kasalliklarni keltirib chiqaradigan ultramikroskopik parazit organizmlardir. 1892-yil rus olimi Ivanovskiy viruslarni o'rganib "*Virusologiya*" faniga asos soldi.

Shakllangan yadroga ega bo'lmaganlarga - Bakteriya (**Bacteriophyta**) va Ko'k-yashil (**Cynophyta**) kabilar kiradi. Bakteriyalar – xlorofillsiz, differensiyalanmagan, yadrosiz bir hujayrali, ba'zan ko'p hujayrali sodda mavjudodlar kiradi. Bakteriyalarning asosan 3 xil shakli mavjud; sharsimon (*koklar*), tayoqchasimon (*batsillalar*), spiral (*spirillalar*) kiradi. Ko'k-yashil suvo'tlar hozirgi kunda prokariotlarga qo'shib o'rganiladi. Buning sababi ularning hujayrasida membrana takomillashmagan, yadro, mitoxondriya, endoplazmatik to'r bo'lmaydi. Ko'k-yashil suvo'tlar dengiz va chuchuk suvlarda va quruqlikda ham tarqalgan. Hozirgi kunda ko'k-yashil suvo'tlar 5 ta tartibga bo'linadi.

Yadroga ega tallomli (**Thaleucaryota**) lar quyidagi 8 ta bo'limga bo'linadi.

- Qizil – **Rhodophyta**
- Qo'ng'ir – **Phacophyta**
- Yashil – **Chloropyta**
- Tillarang – **Chrysophyta**
- Sariq-yashil – **Xantophyta**
- Diatom – **Bacillariophyta**

- Pirrofit – **Pyrrophyta**
- Euglena – **Euglenaphyta**

Suvo'tlar suvda yashovchi hayvonlarga ularning nafas olishi uchun zarur bo'lgan kislorod gazini yetkazib beradi, hamda shu hayvonlar uchun oziq bo'ladi. Ularning qoldiqlari esa turli xil minerat elementlarga boy bo'lganligi uchun xo'jalikning turli sohalarida foydalaniladi. Suvo'tlar o'txo'r baliqlar uchun yaxshi ozuqa hisoblanadi, suv transporti va gidrotexnikada esa dengiz chuqurligini belgilash va boshqa masalalarda ahamiyatlidir. Oziq-ovqat sanoatida yashil suvo'tlarning "dengiz salati" nomi bilan ma'lum bo'lgan ulva va qo'ng'ir suvo'tlarning "dengiz karami" nomi bilan ma'lum bo'lgan laminariya kabi turlari muhim rol o'ynaydi. Plastidasiz tallomlilar quyidagilarga bo'linadi.

Zamburug'lar – **Mycophyta** va Shilimshiq – **Myxophyta** kabi bo'limlarga bo'linadi. Shilimshiq bo'limi turlarining tanasi, yalang'och, ko'p yadroli .shaklda bo'lib, unda sporangiyalar bo'ladi. Sporangiyalarda spora yetiladi. Sporalar o'sib ko'pincha zoosporalarga (harakatchan tanachalarga) aylanadi. Zamburug'lar bo'limi 70-100 000 ga yaqin tur kiradi. Ko'rinishi rangsiz, oziqlanishi geterotrof. Tashqi va ichki tuzilishi har xil. Hayot kechirishi bakteriyalarga o'xshash, lekin bularning tanasi ancha yirik va murakkab, hujayrasi ancha murakkab tuzilgan. Zamburug'lar va Shilimshiq- lar bo'limlari Plastidasiz tallomli (tallofit) tartibiga kiradi.

Lishayniklar – **Lichenes**. Lishayniklar o'simliklar dunyosining o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan tabiiy guruhidir. 30 000 ga yaqin turni o'z ichiga oladi. Ular suvo'tlarning yashil va ko'k-yashil suvo'tlar zamburug'lar bilan birga yashashidan tarkib topgan bo'ladi. Tashqi ko'rinishiga qarab lishayniklar bargsimon, yapaloq va butasimon shakldagi vakillari bor. Ichki tuzilishiga qarab gameomer va geteromerga bo'linadi. Lishayniklarning ko'payishi suvo'tlar va zamburug'lar ko'payishi kabi, ya'ni suvo'tlar hujayralari oddiy bo'linish yo'li bilan, zamburug'lar esa sporalar hosil qilish yo'li bilan (vegetativ) ko'payadi.

References:

1. L.Valikanov "Tuban o'simliklar" 1995-yil.
2. I.Hamidov "Botanika asoslari" 1990-yil.
3. A.Vasilev "Botanika morfologiyasi va anatomiyasi" 1988-yil.